



**RECOMMENDATIONS FOR TESTING THE WRITING SKILLS OF PRIMARY
CLASS STUDENTS**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10091831>

Alijonova Dilorom Azamjonovna

alijonovadilorom679@gmail.com

ABSTRACT

This article provides information on the types of written speech deficits found in elementary school students, requirements for testing and recommendations.

Key words

oral speech, written speech, mental process, phonetic-phonemic, finger movements, hearing, vision, articulatory apparatus, speech therapist.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI YOZUV MALAKALARINI
TEKSHIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR**

Alijonova Dilorom Azamjonovna

alijonovadilorom679@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan yozma nutq kamchiliklarining turlari, tekshirishga qo'yiladigan talablar va tavsiyalar yuzasidan ma'lumotlar berilgan.

Tayanch so'zlar

og'zaki nutq, yozma nutq, psixik jarayon, fonetik-fonematik, barmoqlar xarakatchanligi, eshitish, ko'rish, artikulyatsion apparat, logoped.

Kirish. Jaxon tajribasidan ma'lumki, ko'pgina rivojlangan davlatlar taraqqiyot darajasiga ta'lim-tarbiya sohasidagi islohatlar, ya'ni bu borada o'zlari yaratgan "Milliy model" orqali erishganlar. Shu nuqtayi nazardan, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizdagi ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga kirishildi. Xalqimizga xos bo'lgan farzandlar kelajagi, yorug' istiqboli yo'lida g'amxo'rlik qilish, ulug' ajdodlarimizga munosib barkamol insonni tarbiyalab voyaga etkazish maqsadi va ma'suliyati bilan yashash davlat va jamiyatimizning eng ustivor vazifasiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev aytganlaridek: «Biz jamiyatimizdagi quyi pog'onadagi tartib, intizom va mas'uliyatni



mutlaqo o'zgartirmoqchimiz. Eng zaif tomonimiz - yoshlar bilan shug'ullanmayapmiz. Buni gapirish oson, endi shug'ullantiradigan tizim joriy etishimiz kerak. Mas'uliyatli odamlarni shu lavozimlarga qo'yishimiz kerak»²¹. Mamlakatimizda ma'naviy tarbiya, barkamol inson tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki inson jamiyatning tayanchidir.

Bola shaxsining xar tomonlama rivojlanishida nutqning to'liq rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. To'g'ri nutq bolaning har tomonlama rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Bolaning nutqi qanchalik to'g'ri va lug'ati boy bo'lsa, unga o'z fikrlarini bayon qilish shunchalik oson bo'ladi, atrof - olamni idrok etish uchun imkoniyat kengayadi, kattalar va o'z tengdoshlari bilan bo'lgan munosabati to'liq va mazmunli bo'ladi, uning psixik rivojlanishi ham faol ravishda amalga oshadi. Shuning uchun ham bolalarda nutqning o'z vaqtida shakllanishi haqida, uning sof va to'g'riligi haqida qayg'urish, bola qaysi tilda nutqi shakllanayotgan bo'lsa, mana shu til meyorlarida namoyon bo'luvchi turli nuqsonlarni oldini olish va to'g'rilash muhim hisoblanadi. U yoki bu darajadagi nutq buzilishlari bolaning barcha ruhiy rivojlanishlariga salbiy ta'sir etadi, uning faoliyatida, yurish-turishida aks etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan nutq kamchiliklaridan biri bu-yozma nutq buzilishidir.

Bolardagi yozuv kamchiliklari - bu bolalarning nutqiy faoliyatining ayrim jihatlari tizimli rivojlanmaganligi sababli yuzaga kelgan, aqliy qobiliyatlari va eshitish qobiliyati me'yorda rivojlangan bolalar, avvalambor, so'zning tovush va morfologik tarkibi haqida tasavvurlarning etarli shakllanmaganligida namoyon bo'ladi. Bunday holda, bolalar tovush tahlili va nutq sinteziga tayyor emas va shu sababli tilni rivojlantirishning yetuk bosqichiga - savodxonlik va imlo malakalarini o'zlashtira olmaydi. R. E. Levinaning ta'kidlashicha, bu yozuvning turli xil tarkib va ifodalanganlik darajasiga ega bo'lishi mumkin bo'lgan turli xil kamchiliklar bilan tasdiqlanadi: uning to'liq shakllanmaganligidan tortib, faqat ayrim muhim bo'lmagan xatolargacha. Barcha bolalarning yozuvida, ushbu ko'nikmani o'zlashtirish darajasidan qat'iy nazar, undosh tovushlarni aralashtirish va almashtirishda xatolarga yo'l qo'yiladi, faqat undosh tovushlarni almashtirish bo'yicha xatoliklarni odatiy, xarakterli va barqaror deyish mumkin. Bu xolat bolalarni ommaviy ko'rikdan o'tkazish bilan tasdiqlanadi. (R. Ye. Levina, N. A. Nikashina, L. F. Spirov)²².

Ma'lumki, yozuv ko'nikmalarining rivojlanmaganligi nafaqat nutqning buzilishi, balki boshqa omillar, masalan, tartibsiz maktablarda ta'lim olish (tez-tez uchraydigan kasalliklar, ko'chib yurish va boshqa sabablarga ko'ra), pedagogik

²¹ Sh.M. Mirziyoev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: «O'zbekiston», {2016. -56 b}.

²² Levina R./E. Narusheniye pisma u detey s nedorazvitiyem rechi. Moskva - 1998.



beparvolikda, xulq-atvorning buzilishida, bilingvizm holatida, eshitish, ko'rish qobiliyatlarining pasayishi va intellektual rivojlanmaganlik natijasida kelib chiqishi mumkin. Yozuvni shakllantirish darajasi va xatolarning tabiati to'g'risida logoped o'quvchining maktab daftariga qarab bilib oladi. Biroq, nuqsonning tuzilishini aniqlashtirish uchun yozuvni turli xil sinovlar, jumladan, eshitish diktanti, mustaqil yozish va bosma matndan ko'chirish orqali maxsus tekshirish kerak.

Tekshiruv harflar, bo'g'inlar, so'zlarni yozish bilan boshlanadi va yozma nutqning yanada murakkab shakllarini taqdim etish bilan tugallanadi, ya'ni bolaning bilim darajasiga qarab, berilgan mavzu bo'yicha rasm yoki kompozitsiyani taqdim etish. Endigani o'rganishni boshlagan bolalar, diktant asosida xarflarni yozish vazifasi beriladi. Bolaga alohida tovushlar og'zaki aytiladi, bola ushbu tovushning grafik tasvirini yozishi kerak. Ushbu tekshiruvlar bolaning nutqiy tovushlarini aniq idrok etishi, ularga mos grafik tasvirlarni yozishi kabi jihatlar aniqlanadi. Tekshirish davomida olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, boladagi yozuv buzilishi turlari va darajalari aniqlanadi. Bolada "W" xarfi o'rniga "I" yoki "D" xarfi o'rniga "B" kabi alohida qiyinchiliklarga duch keladigan almashtirishlarni ko'rish mumkin.

Bola alohida harflarni, ayniqsa kamdan-kam uchraydigan harflarni shunchaki unutishi va ularni tasodifiy uslub bilan yozishi mumkin. Bu yozish ko'nikmalarining normal rivojlanishidan dalolat beradi. Agarda bola akustik, artikulyator jihatdan o'xshash tovushlarni bir-biri bilan almashtirsa (masalan, Sh o'rniga S, D o'rniga T), bu xatoliklar eshituv va eshituv-artikulyatsion tahlil jarayonlaridagi kamliklar mavjudligidan dalolat beradi. Ushbu xatolar tasodifiy yoki muntazam ro'y berishini bilish uchun, logoped bolalar nutqida ko'p xolatlarda o'zaro almashtirish holatlari kuzatilgan tovushlarni og'zaki aytadi. O'zaro almashtiriladigan tovushlar dastlab alohida taqdim etiladi (*ch, p, z, g, b, s, k, d, sh, s, t, p, sh d, r.*), keyinchalik esa juftlab (*ch-s, p-b, z-s*).

Bu nafaqat tovushlarni farqlashdagi nuqsonlar darajasini, balki bola uchun vazifa engillashtirilgan yoki aksincha, murakkab bo'lgan sharoitlarni aniqlashga imkon beradi. Tekshiruv aniqlangan nuqsonning tuzilishini sifatli tahlil qilishga yo'naltirilishi kerakligi sababli, eshitish idroki shakllanmaganligi asosiy yoki ikkilamchi nuqson, masalan, artikulyatsion apparat harakati buzilishining oqibati ekanligini aniqlash kerak. Tekshirishning keyingi bosqichi - alohida bo'g'inlarni diktant asosida yozish. Bolaga ochiq bo'g'inlar (na, ba), yopiq bo'g'inlar (sas, dum, tan), undoshlar oppozitsion bo'g'inlar (sa-za, sa-sha, ba-na, me-ma) aytiladi. O'quvchi yozishning o'rniga, kesma alifbo harflaridan foydalanib, bo'g'inlarni tuzishi mumkin. Bolaning yozuv darajasini aniqlash uchun ko'rsatilgan namunalar asosida alohida so'zlar va qisqa iboralarni yozish taklif etiladi. Birinchidan, sodda,



soʻngra fonetik jihatdan murakkabroq soʻzlar (uy, toʻp, mix), shuningdek kichik iboralar ogʻzaki aytiladi. Masalan: “Malika oʻynayapti”, “Malikaning qoʻgʻirchogʻi bor”. Tekshiruv uchun material bolaga tanish boʻlgan narsalar (masalan, echki, toʻp, soat, gugurt, choynak, qiz) tasvirlangan rasmlar boʻlishi mumkin. Yozuvning yuqori darajasida bir nechta jumladan tashkil topgan, bola oʻqiyotgan sinfning ona tili uchun dastur talablariga javob beradigan tarzda tanlangan va bir vaqtning oʻzida koʻp hollarda nuqsonli talaffuz qilinadigan tovushlar ishtirok etgan soʻzlardan iborat eshitish diktantini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bola sirgʻaluvchi, shovqinli, jarangli va jarangsiz harflarni almashtirishda oʻziga xos xatolarga yoʻl qoʻyishiga alohida eʼtibor qaratish lozim. Ushbu holatda quyidagilar inobatga olinishi lozim: bitta yoki qisman xatolar; akustik-artikulyatsion xususiyatlar boʻyicha farqlanuvchi bir guruh (jarangli va jarangsiz), yoki bir necha guruh tovushlardagi xatolar (jarangli, jarangsiz, sirgʻaluvchi, shovqinli), yozuvdagi almashtirishlar ogʻzaki nutqidagi kamchiliklarga mos kelishi. Shuni yodda tutish kerakki, birinchi sinf oʻquvchilari va hatto ikkinchi sinf oʻquvchilari orasida yozuv xatolarining asosiy qismini tovush buzilishlari egallaydi. Bu toʻgʻri yozuvning tabiiy shakllanishi bilan bogʻliq taʼlimning juda qiyin bosqichidir. Shuning uchun, bu xatolar akustik yaqin tovushlarni almashtirish uchun xatolar bilan birgalikda diagnostik ahamiyatga ega. Ularning hisobi boladagi yozuvning buzilish darajasini aniqlashga yordam beradi. Bolalarning yozma ishlarida harflarni yozish bilan bogʻliq grafik xatolari aniqlangan holda, ularning xususiyati va determinizmini aniqlash kerak. Shuni yodda tutish kerakki, ushbu xatolar yozuv koʻnikmalarini shakllantirishning dastlabki bosqichlarida normal hisoblanadi (G. V. Guryanov, B. D. Ananov va boshqalar)²³, lekin oʻqitishning keyingi bosqichlarida, ular odatda optik-fazoviy kamchiliklar bilan emas, balki nutq tizimlarining buzilishi natijasida yuzaga keladi. Grafik koʻnikmalarni oʻzlashtirish nafaqat koʻruv idroki va qoʻl harakatlari, balki harfni grafema sifatida oʻzlashtirishni taʼminlovchi til bilish darajasi bilan ham bogʻliq. Fonematik tasavvurlar sust shakllangan bolalarda harflarning grafik koʻrinishini oʻzlashtirish jarayoni qiyin kechadi. Fonematik qiyinchiliklar harflarning oʻzlashtirilishiga boshqacha taʼsir qilishi mumkin. Baʼzi hollarda fonemalarning yetarli darajada farqlanmasligi ularning grafik obrazini shakllanishiga bevosita taʼsir qiladi. Grafik xatolar, shuningdek, bolaning aqliy faoliyati yetarlicha faol boʻlmagan holatlarda, oʻzlarining va boshqalarning nutqini tinglash va taqqoslash qobiliyatining yoʻqligi, ixtiyoriy diqqatning zaiflashishi va aqliy jarayonlarning sust tartibga solish holatlarida kuzatiladi. Bola tomonidan yoʻl qoʻyilgan xatolarning xususiyati va manbasini aniqlash uchun tekshirish paytida taqdim etilgan namunadan koʻchirish koʻnikmasi tekshiriladi (birinchi navbatda,

²³Paramonova L.G. Logopediya dlya vsekh. -SPb: Piter. 2004.



matndan, lekin qiyin bo'lgan hollarda yengilroq namunalar ham taklif qilinadi - alohida so'zlar, bo'g'inlar, harflar). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozuvni tekshirish va tahlil qilishda logoped bolaning og'zaki nutqi, nutq apparati tuzilishi, nutq apparati xarakatchanligini, eshitish, ko'rish analizatorlari, barmoqlar xarakatchanligi holatlarini tekshirish va qayd etib borish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Sh.M. Mirziyoev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: «O'zbekiston», 2016. -56 b.
2. Levina R/.E. Narusheniye pisma u detey s nedorazvitiyem rechi. Moskva - 1998.
3. Nikashina N.A. Neuspevaemost pervoklassnikov, imeyushix nedostatki proiznosheniya i puti ix ustraneniya.
4. Paramonova L.G. Logopediya dlya vsekh. -SPb:Piter.2004.